

## Buxoro viloyatida 2021- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar


Raqamlar:



Joriy davrda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **13805,4** mlrd. so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan **125,1 %** ni tashkil etdi. Moliyalashtirishning manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi – **8412,6** mlrd. so'm yoki **60,9 %** i xorijiy investitsiyalari va kreditlari, **3838,2** mlrd. so'm, yoki **27,8 %** i korxonalar va aholining o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri keladi.

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

2021- yil yanvar-sentabr oylarida jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan - **2260,5** mlrd. so'm, jami investitsiyalardagi ulushi **16,4 %** ni, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa **11544,9** mlrd. so'm, jami investitsiyalardagi ulushi **83,6 %** ni tashkil qildi.



■ markazlashgan ■ markazlashmagan


## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

	Jami, mlrd. So'm	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)						
		Respublika byudjeti	Korxonalar va tashkilot mablag'lari	Aholi mab- lag'lari	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlar- ning qarz mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'mi-noti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>13805,4</b>	<b>4,4</b>	<b>17,5</b>	<b>10,3</b>	<b>5,4</b>	<b>60,9</b>	<b>0,7</b>	<b>0,8</b>
<i>Shaharlar:</i>								
Buxoro sh	3270,7	6,3	19,7	6,9	8,8	54,9	0,3	3,1
Kogon sh	260,6	7,4	12,9	7,8	3,8	65,2	2,9	
<i>tumanlar:</i>								
Olot	1015,5	4,0	6,2	12,5	1,0	76,3		-
Buxoro	689,5	5,7	13,4	16,9	5,1	58,2	0,7	-
Vobkent	425,5	3,6	4,7	18,7	4,8	66,2	2,0	-
G'ijduvon	499,4	3,6	13,2	38,3	13,0	30,0	1,9	-
Kogon	1544,5	2,2	5,4	7,1	5,8	79,0	0,5	-
Qorako'l	304,2	14,8	10,5	35,4	7,8	31,5		-
Qorovulbozor	479,0	2,0	33,8	1,5	1,7	60,1	0,9	-
Peshko'	315,3	8,9	8,5	36,1	2,2	42,0	2,3	-
Romitan	4421,2	2,4	24,8	3,3	3,2	65,9	0,4	-
Jondor	396,7	6,4	18,3	27,1	9,7	36,6	1,9	-
Shofirkon	183,3	12,2	13,8	37,4	4,6	27,2	4,8	-

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning  
moliyalashtirish manbalari**

	Mrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, %da
<b>Jami</b>	<b>13 805,4</b>	<b>125,1</b>	<b>100</b>
<b><i>Markazlashgan:</i></b>	<b>2 260,5</b>	<b>56,6</b>	<b>16,4</b>
Respublika byudjeti	609,1	109,2	4,4
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	102,6	-	0,8
Suv ta'mi-noti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	97,6	2,6 m.	0,7
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	1 451,2	42,7	10,5
<b><i>Markazlashmagan:</i></b>	<b>11 544,9</b>	<b>164,0</b>	<b>83,6</b>
Korxonalar mablag'i	2 418,7	96,6	17,5
Aholi mablag'i	1 419,5	102,7	10,3
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	6 961,4	2,8 m.	50,4
Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	745,3	113,7	5,4


### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalarining tarkibi, % da Markazlashgan




- Byudjet mablag'lari
- O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari
- Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
- Suv ta'mi-noti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi

### Markazlashmagan

- To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
- Korxonalarining o'z mablag'lari
- Aholi mablag'lari
- Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari




**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, % da**



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha **5834,4** mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning **42,2** % ni tashkil etdi, mashina, uskunalar va jihozlarni xarid qilishga **7189,9** mlrd. so'm (**52,1** %) va boshqa xarajatlarga **781,1** mlrd. so'm (**5,7** %) investitsiyalar o'zlashtirilgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (jamiga nisbatan ulushi, % da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **3502,7** mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning **25,4** % i o'zlashtirilgan.

Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari ishlab chiqaradigan sanoatiga **18,8** % (yoki **2597,8** mlrd. so'm), qishloq, urmon va baliq xo'jaligiga **12,1** % (yoki **1674,2** mlrd. so'm), uy-joy qurilishiga **8,5** % (yoki **1168,9** mlrd. so'm), tashish va saqlashga **16,8** % (yoki **2314,5** mlrd. so'm), qurilishga **2,2** % (yoki **297,4** mlrd. so'm), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishga **2,8** % (yoki **381,1** mlrd. so'm), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalarni tamirlashga **2,0** % (yoki **279,8** mlrd. so'm), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga **1,7** % (yoki **235,8** mlrd.

so'm), ta'limga **3,1** % (yoki **428,4** mlrd. so'm), boshqa faoliyat turlariga **6,6** % (yoki **924,8** mlrd. so'm) to'g'ri keladi.


Turar-joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.

### Xorijiy investitsiya va kreditlar (jamiga nisbatan ulushi, % da)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida **8412,6** mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmining **60,9** % i xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **142,8** % ni tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi **1383,6** mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **16,4** % ni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi **7029,0** mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **83,6** % ni tashkil qildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
xorijiy investitsiya va kreditlarlar**  
(jamiga nisbatan ulushi, % da)



- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tog'-kon sanoati
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Qurilish
- Tashish va saqlash
- Boshqa faoliyat turlari


Xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy hajmi tog'-kon sanoatiga **2479,9** mlrd. so'm (yoki **29,5** %), ishlab chiqarish sanoatiga **2166,9** mlrd. so'm (yoki **25,8** %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **1058,8** mlrd. so'm (yoki **12,6** %), tashish va saqlashga **1730,2** mlrd. so'm (yoki **20,6** %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishga **268,5** mlrd. so'm (yoki **3,2** %), qurilishga **135,3** mlrd. so'm (yoki **1,6** %) va boshqa faoliyat turlariga **573,0** mlrd. so'm (yoki **6,7** %) to'g'ri keladi.



**Xorijiy investitsiya va kreditlar** (mlrd. so'mda)

	<i>Jami investitsiya va kreditlar</i>	<i>To`g`ridan-to`g`ri investitsiyalar</i>	<i>Shu jumladan:</i>	
			<i>O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari</i>	<i>Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>8412,6</b>	<b>1010,9</b>	<b>1451,2</b>	<b>5950,5</b>
<i>Shaharlar:</i>				
Buxoro	1791,4	129,0	858,0	804,4
Kogon	169,7	142,2	8,0	19,5
<i>tumanlar:</i>				
Olot	774,5	75,7	570,0	128,8
Buxoro	401,7	233,4	-	168,3
Vobkent	281,7	31,5	-	250,2
G'ijduvon	149,6	1,5	-	148,1
Kogon	1219,1	76,4	6,4	1136,3
Qorako'l	95,9	4,4	8,8	82,7
Qorovulbozor	287,7	6,1	-	281,6
Peshku	132,4	12,3	-	120,1
Romitan	2914,1	211,2	-	2702,9
Jondor	145,2	64,7	-	80,5
Shofirkon	49,6	22,5	-	27,1

## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Romitan tumani eng yuqori o'rinni egalladi. Ushbu tumanda **4421,1** mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan, o'sish sur'ati **92,7 %** tashkil qildi. Keyingi o'rinni Bukhoro shahri egalladi, o'zlashtirilgan investitsiyalar **3270,7** mlrd. so'm, o'sish sur'ati **160,9 %** ni tashkil qildi. Kogon tumani **1544,5** mlrd. so'mlik asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu tumanda o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati **3,1 m.** ni tashkil qildi.

## Buxoro viloyati aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida

	<i>Ming so'mda</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>7 051,9</b>	<b>123,5</b>
<i>Shaharlar:</i>		
Buxoro	11 586,1	159,8
Kogon	4 217,3	2,1 m.
<i>tumanlar:</i>		
Olot	10 094,5	102,2
Buxoro	4 055,7	106,7
Vobkent	2 992,6	160,8
G'ijduvon	1 617,2	76,1
Kogon	19 306,2	3,0 m.
Qorako'l	1 833,4	122,8
Qorovulbozor	25 616,4	4,4 m.
Peshku	2 516,1	127,3
Romitan	30 554,4	91,0
Jondor	2 235,2	128,1
Shofirkon	1 018,7	100,4

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga taqsimotida eng yuqori ko'rsatkichni Romitan tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **30544,4** ming so'mni, o'sish sur'ati **91,0** % ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Qorovulbozor tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **25616,4** ming so'mni, o'sish sur'ati **4,4 m.** ni tashkil qildi. Kogon tumani uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan

investitsiyalar aholi jon boshiga **19306,2** ming so'mni, o'sish sur'ati **3,0 m.** ni tashkil qildi.

### **Ijtimoiy soha obyektlarining qurilishi**

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 1110,0 ming kv.m turar joy ishga tushirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil etdi, ulardan 76,7 % i yoki 851,2 ming kv.m turar joylar qishloq joylariga tog'ri keladi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida turar joy qurilishida jami 1164,4 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.

**Buxoro viloyat statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul : M.Dehqonov**

**Aloqa telefoni : (65) 223-81-99 ; (371) 230-83-10**